




BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University


10/2023

E-ISSN 2181-1466







9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



10/2023



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2023, № 10, noyabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liq Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoir Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza Toymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Менглиев Б.Р., Гулямова Ш.Қ.	“Оралиқ учинчи” қонуни ва тилда полифункционал сўзлар муаммоси	4
Yuldasheva D.N.	Sukut – shaxslararo psixolingvistik birlik	14
Mirxanova G.R.	Zamonaviy o‘quv lug‘atchiligida sinonim lug‘atlarni takomillashtirish muammolari	20
Sharipov S.S.	Advancements in contemporary lexicography: a deep dive into electronic and online dictionaries and the nuances of scientific terminology	24
Rustamova D.	Turli tilshunoslik maktab va yo‘nalishlari qarashlarini ensiklopedik lug‘atda ifodalash muammosi	28
Bobokalonov R.R., Ochilova Y.R.	Neyropsixolingvistika: nutq madaniyati va so‘z jozibasi haqida mulohaza	33
Ganieva O.Kh., Khakimova D.M.	Classification and particular challenges of translating tourism terminology from english into russian language	38
Davlatova M.H.	Ingliz tili fe‘l predikatlarining funksional-semantik maydonda voqelanishi	43
Amonturdiyev N.R.	O‘zbek tili etnografizmlarning nominativ xususiyatlari	48
Юлдашева Д.Н.	Использование молчания в деонтологической культуре	53
Yunusova M.Sh.	Shifokorning nutq harakati strategiyasi va taktikalari	60
Rasulov Z.I.	Semantic and syntactic properties of elliptic structures	65
Axmedova D.B.	Til korpuslari va ularning birliklari	70
Kim Y.H., Sunatullaeva M.	우즈베키스탄 한국어 학습자의 모음 발음 양상 연구 -중급 학습자 중심으로-	74
Mardonova S.O.	O‘zbek tilshunosligida so‘z yasash usullari, yasama so‘zning til va nutqqa munosabati	79
Mukhammadieva N.M.	Emotive vocabulary as a means of emotional coloring of a literary text	85
Narzullayeva F.O.	Jahon va o‘zbek tilshunosligida so‘z va polisemantizm	90
Nazarova N.A.	Tilshunoslikda nazariy va amaliy onomastika tasnifi	95
Quvvatova Sh.Ch.	Specific features of English and American romanticism	100
Raxmatov A.P.	Nemis tilida kelasi zamonni ifoda etuvchi vosita va omillarning o‘zaro munosabati	107
Saidov X.Sh.	Features of using abbreviations in sms language and the internet by the materials of English language	111
Shaymanova Y.T., Karshiboeva Z.A.	Speech acts and their place in modern linguistics	115
Tursunov M.M.	The link between language and culture in sociolinguistics	120

*Adizova Obodon Istamovna,
Buxoro davlat universiteti, Filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), professor,
obodon63@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi janri bo'lmish maqol va uning o'ziga xos xususiyatlariga ta'rif berilgan. Ikki noqardosh til maqollarining o'zgarishi ma'no-mazmuniga qay darajada ta'sir ko'rsatishi, ularning mantiqiy mazmuni, tasviriy vositalari, ularning ijtimoiy, axloqiy, pragmatik vazifalari, maqollarning yashovchanlik xususiyati xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: leksik fond, tarkibiy element, maqollarning realligi, so'zlar simmetriyasi, assonans, maqollarning mazmuni.

ПОСЛОВИЦЫ – БЕСЦЕННЫЙ ОБРАЗЕЦ ТВОРЧЕСТВА НАРОДА

Аннотация. В данной статье описывается пословица, жанр народного творчества, и ее характеристики. В какой степени изменение пословиц влияет на их смысл. Обсуждаются также их логический статус, образные средства в пословицах, их социальные, нравственные, прагматические функции, жизнеспособность пословиц.

Ключевые слова: лексический фонд, конститутивное единство, актуализация пословиц, симметрия слов, ассонанс, статус пословиц.

PROVERBS - AN INVALUABLE SAMPLE OF THE CREATIVITY OF THE PEOPLE

Abstract. This article describes a proverb, a genre of folk art, and its characteristics. To what extent does changing proverbs affect their meaning; Their logical status, figurative means in proverbs, their social, moral, pragmatic functions, and the vitality of proverbs are also discussed.

Key words : lexical stock, constitutive unity, updating of the proverb, symmetry of words, assonance, discursive status.

Kirish. Maqollar-hayotiy tajriba va sinovlar hosilasidir. Maqollarda ajdodlar axloqiy qarashlari, narsa-hodisalarga munosabatlari, ruhi va tafakkuri sezilib turadi. Ularda har bir xalqning dono siyosi, tarixiy taqdiri, mentaliteti, bag'rikengligi, saxovati, adolatpeshaligi, ilmga, mehnatga chanqoqligi, bunyodkorligi, mehmondo'stligi, oilaparvarligi, bolajonligi, bolaparvarligi, mehmonnavozligi, to'g'riligi, sevgi-sadoqati, jo'shqinligi, tiyrakligi, g'ayrat-shijoati, quvonchi, iztirobi, dushmanlariga qahr-g'azabi, betakror urf-odatlari va an'analari yaqqol aks etib turadi. Xalq shu maqollari orqali kelajak avlodiga o'z turmush tajribalaridan saboq beradi. Maqollarning xalq og'zaki ijoddagi o'rni, shubhasiz, qadim zamonlarga borib taqaladi. Muayyan bir xalqqa mansub bir folklor janri namunasining boshqa bir millat folklorida uchrashi jahon xalqlari folkloridagi janrlarning mushtarakligini yorqin namoyon etuvchi asosiy belgilardan biridir. Qolaversa, bu yana folklor janrlari tarixiy taqdiridagi mushtaraklikdan ham dalolat beradi. Masalan, maqol inson ma'naviy taraqqiyotining ilk bosqichida shakllangan qadimiy janrlardan biridir. Maqolning birinchi yozma izlari Qadimgi Misrdan topilgan. Bu svilizatsiyaning asos solingan eng qadimiy davridir, u miloddan avvalgi III ming yillikda boshlanib, Rim imperiyasining paydo bo'lishi (miloddan avvalgi 31 yil) bilan tugaydi. Shuningdek, ular 1843-yilda fransuz tadqiqotchisi Emile Prisse d'Avesnes tomonidan topilgan bo'lib bu insoniyat tarixining birinchi qo'lyozmalaridan biridir. U ma'naviy ma'noga to'la bo'lgan qadimgi Yunonistonda tug'ilishidan oldin falsafa bo'yicha o'ziga xos birinchi risoladir. Maqollar Misr antik davrida juda mashhur bo'lgan adabiy janr bo'lgan "donolik" ning asosiy matniga aylangan. Ulamolar, qozilar va amaldorlar sinfi uchun mo'ljallangan bu ta'limot nutqdan to'g'ri foydalanishni yetkazish va olim-u ulamolar farzandlarini tarbiyalash uchun foydalanishgan

Asosiy qism. Maqollar ma'lum vaziyatda, ma'lum voqea-hodisa munosabati bilan yo fikrni boshlash oldidan, yoki fikr bayoni jarayonida, yoki fikrni xulosalash maqsadida aytiladi. Uni yosh-u qari birdek aytsada, ko'proq hayotiy tajriba egasi bo'lgan katta avlod nutqida faolroqdir. Maqollarni ish jarayonida ham, oddiy yoki jiddiy muomala-munozaralarda ham, to'y-hashamlarda ham aytish mumkin. Har bir gapga bir maqolni qo'shib, fikrni dalillash, tasdiqlash yoki inkor etish asosida nutqning ta'sir kuchi oshiriladi. Bunday nutq tinglovchini befarq qoldirmaydi, uning his-tuyg'ulariga tez ta'sir qilib, fikrini uyg'otadi, adolatli

xulosalarga kelishi va hukm chiqarishini ta'minlaydi. Maqollarning axloqiy hukm sifatidagi mohiyati shunda ko'rinadi, zero, maqollarda hukmdan kechinmaga qarab boriladi. Maqollarda ifodalangan yagona hukm har bir tinglovchida har xil kechinma yoki fikr uyg'otishi tabiiy. Lekin baribir barcha bir xil xulosaga keladi.

Maqollar og'zaki badiiy ijod va falsafa oralig'ida turgan hodisa bo'lib, ularda aytilgan hukmni hech kim inkor etolmaydi. Chunki bunday hukm, avvalo, asrlar davomida turmush tajribasida qayta-qayta sinalib tasdiqlangan, keyin esa, xuddi shu xususiyati tufayli tarix hikmatiga aylanib tashviqiy mohiyat kasb etgan. Shuning uchun maqollardagi fikrlar tinglovchilar tomonidan e'tirozsiz, hech bir qarshiliksiz va izohsiz qabul qilinishi odatiy holdir. Maqollarda mantiq kuchi baland, fikr ishonarli va bahslashishga o'rin qoldirilmagan. Shu sababli ulardan nutqning istalgan joyida, istalgan maqsadda foydalanish mumkin. Shunga qaramay, maqollar, odatda, jiddiy tusda aytiladi va tinglanadi. Lekin bazi hollarda maqollar kinoya, piching, istehzo, zaharxanda manolarida ham ishlatilishi mumkin: "Jo'jani kuzda sanaydilar" maqolida ishining natijasi ko'rinmay maqtanadigan kishilarga kinoya, "Gado arazlasa-to'rvasiga ziyon" maqolida huda-behudaga achchiqlanadigan kishilarga zaharxanda ma'nolari ifodalasa, "Temirni qizig'ida bos" maqolida har ishni o'z vaqtida bajarishga undash ma'nolarini anglash mumkin.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xildir. Vatan, mehnat, ilm, kasb-hunar, do'stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat, shuningdek, salbiy xislatlar xususida rang-barang maqollar yaratilgan. Maqollar mavzu, mazmun va turli xil shakllarda, ko'p hollarda qofiyadoshlik, ba'zan ko'p ma'nolilik, majoziy ma'nolar xususiyatlariga ega bo'ladi. Bugungi kunda, maqollar ustida qizg'in izlanishlar olib borilayotgan bir paytda, maqollarning turli jihatlarini o'rganish, paremiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu orqali fransuz va o'zbek tillaridagi maqollarning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Mashhur tilshunos Dal aytganidek, "Maqollar to'plami - bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog'lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqati". Til har bir millatning madaniyatini, qadriyatlarini va e'tiqodini, umuman xalqning o'ziga xos jihatlarini ifodalashda eng muhim omildir. Ushbu maqolada o'zbek va fransuz tillaridagi maqollarning mavzu jihatidan bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini ko'rib chiqish va ulardagi milliy xarakterning ifodalanishi haqida so'z boradi. V. Teliya tilshunos va folklorshunos olim sifatida madaniyatni til bilan bog'liqligida paremiologiya sohasini rolini alohida ta'kidlab o'tadi. Uning aytishicha, "Til butun bir madaniyatni o'zida ifodalay ekan, shubhasiz, paremiologiya sohasi ham tilning egasi bo'lmish xalqning madaniyatini juda chiroyli va chuqur ifodalay oladi"-deydi.

Olimlar maqollarning kelib chiqishi, tillardan tillarga o'tish etimologiyasini o'rta asrlardan boshlab o'rganib, ikki va uch til misolida qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar olib borganlar. Fransuz olimi Filipp Rapatelning tadqiqotida fransuz maqollarining tillardan tillarga o'tish jarayoni, tarixi, tarjimada berish usullari va muammolari tadqiq qilingan. U fransuz tilidagi bir qancha maqollarni tahlilga tortib, ularning etimologiyasini ilmiy o'rganib chiqdi. Remi Dor esa qadimgi turkiy maqollar strukturasi o'rganishda Jorj Bertram Milner tajribasidan foydalandi. Shuningdek, o'zbek olimlari ham maqol, matallarning lisoniy-kognitiv tahlili yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borganlar. G'.Salomov, Q.Samadov, Sh.Shorahmedov, X.Abdurahmonov, M.Sadridinova, A.Narziqulov, A.Mamatov, A.Nosirovlarning ishlari shular jumlasidandir.

Maqollarning badiiy mukammalligi ularning hayotiyiligini, umrboqiyiligini ta'minlaydi. Ayni chog'da badiiy go'zallik yaratishda bevosita so'z tanlash, tasvir vositalaridan unumli foydalanish jihatlari ham bor. Maqollardagi milliylik haqida gapirar ekanmiz, fransuz xalqining xarakteri haqida so'z yuritib o'tishimiz maqsadga muvofiqdir. Dunyo millatlari orasida ushbu xalq vakillari sermulozamatligi va hurmattalabligi bilan ajralib turadi. Bu jihat fransuz maqollarida ham o'z aksini topadi: fransuzcha: Il ne faut pas jamais dire : Fontaine, je ne boirai pas de ton eau. O'zbekcha tarjimasi : Hech qachon, favvora, men sening suvingdan ichmayman dema. Ushbu maqolda hech qachon kimnidir kamsitmaslik, insonlarga nisbatan doimo xushmuomula bo'lish har qanday qiyin vaziyatda ham insoniylik chegarasidan chiqmaslik nazarda tutiladi. Ya'ni maqoldan har ikki millatda ham sermulozamatlik, ochiqko'ngillik kabi insoniy sifatlar borligini, xushmuomula, kamtarin bo'lish esa xuddi biz singari fransuzlar mentalitetiga xos bo'lgan tushunchalar ekanligini anglashimiz mumkin .

Maqollar shaklan ixcham bo'lsa-da, badiiyatiga ko'ra yuksak obrazlilikka egadirlar. Ularda fikr sodda, tabiiy, ravon, silliq va tushunarli bo'lib, ta'sirchan ifodalanishi ehtiyoji turli narsalar, hayvonlar, o'simliklar va hodisalar obrazlaridan g'oyaviy-badiiy niyatni ifodalashda foydalanishni taqozo etgan. Natijada timsoliy obrazlar vositasida hayotdagi ijobiy yoki salbiy voqealarga, insoniy munosabatlarga axloqiy baho berilib, hukmlar chiqarilgan.

Quyida biz fransuzcha maqollarning o'zbek tilidagi tarjimalaridan namunalar ko'rib chiqamiz.

- Une femme est un beau don de Dieu, si elle n'est pas gâtée par le diable.
- Ayol — xudoning go'zal ne'mati, agar uni shayton totib qo'yagan bo'lsa.
- Il y a plus de mouches autour du miel que du vinaigre.
- Sirkadan ko'ra asalning atrofida pashsha ko'p bo'ladi.
- Soyez proche de Dieu, pas de l'église.
- Cherkovga emas, xudoga yaqin bo'l.
- La mort ne fait pas peur à l'amour.
- O'lim sevgini qo'rqitmaydi.
- Seul un imbécile ne change pas d'avis
- Faqatgina ahmoq o'z fikrini o'zgartirmaydi.

Bugungi kunda xalqlar madaniyatini ko'rsatishda maqollar eng faol vositalardan biri sifatida ekanligi muhim mavzulardan biriga aylanmoqda. Har bir maqol, xalqning turmush tarzini qisqa va lo'nda umuman olganda to'laligicha ifodalay oladigan ko'zgu deb hisoblanadi. Maqollar orqali xalqning madaniyati aks etadi. Fransuzcha: "Ange à l'église et diable à la maison" maqolini o'zbek tiliga tarjima qilsak - Cherkovda farishta, uyda shaytondek ma'nosini beradi. Bu o'zbek tilida: "Ko'cha -xandon, uy-zindon" maqoli orqali ifodalanadi. Agar maqollarning ma'no mazmunini tahlil qiladigan bo'lsak, ularning fikricha doimiy ko'chada xushchaqchaq, mehribon bo'ladigan shaxs har doim ham yaxshi inson bo'lib qolavermaydi. Bu maqol orqali, yaxshi va xushchaqchaq bo'lib ko'ringan shaxs, aslida insoniy sifatlarga ega bo'lmasligi ifodalanayapti. Biz yana maqol orqali cherkov-Xristian olamining muqaddas dargohi ekanligini, islom olamida esa masjid shu o'rinda ekanligini anglashimiz mumkin. Agar o'zbekcha variantini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u o'zbek tilida quyidagicha: Ko'cha -xandon, uy-zindon tarzida ifodalanadi. Unda ishlatilgan "farishta", "uy", "shayton" kabi so'zlar o'zbek tilida uchraydigan so'zlardandir. Xalq maqollari o'sha xalqning mentalitetini ifodalashda xalqning o'ziga xos madaniyati, tarixi va urf-odatlarini ixcham holatda yetkazib beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Ular xalq ijodiyotining bebaho namunasi bo'lib, o'sha xalqning milliy madaniy xususiyatlarini, dunyoqarashi va millatning ruhiyatini ifodalaydi. Xalq maqollari mavzusiga ko'ra boy va rang-barangdir. Ular mazmunan hayotning barcha qirralarini qamrab olgan. Maqollar qadimdan hozirgacha yaratilib kelinmoqda. Hatto ular yozma adabiyotga ko'chgan. Ularning ma'lum bir xalqqa mansub folklor janrini yana boshqa bir millat folklorida uchratish jahon xalqlari folkloridagi janrlarning mushtarakligidan, ularning aksariyati genetik asosdoshligidan dalolat beradi. Maqollar xalq aforistik tafakkurining kaliti bo'lib, hajman siqiq, mazmunan purhikmat, ommaviy va keng tarqalgan janrdir. Ularda kishilikning tabiat va jamiyatga munosabatining hamma qirralari axloqiy-falsafiy hukm tarzida baholangan. Maqollar otabobolarning asrlar davomida to'plangan hayotiy tajribalarini zamonlar osha yetkazishda manoviy ko'priki bo'lib, avlodlarning bir-birlariga bog'lanishlarida beminnat xizmat qilib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, maqollar bu xalqlarning madaniy merosidir. Ularda o'sha xalqning barcha o'y-fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe'l - atvori va e'tiqodi aks etadi. Har bir millat o'ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Hatto maqollardagi mavzular o'xshash bo'lsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo'yqordorlikni ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Adizova O. I. *The exceptional in the works of Van Gennepe. Special issue ijssir april 2023 issn 2277-3630 (online), published by international journal of social sciences & interdisciplinary research., comparative study of literature, comparative linguistics, translation studies, 2023y, 121-126b*

2. Adizova O.I. *Folklorshunoslikka bir nazar. Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari to'plamini 30-aprel 2023-yil 127-131b*

3. Adizova O. I. *Les contes biographiques et esthétiques. Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2023 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.938*

4. Adizova O. I. *Medieval Tales and Fairy Tales in the 17th Century. Journal of Survey in Fisheries Sciences 10(2S) 1689-1697, 2023 Skopus*

5. *Arnold Van Gennepe Le folklore. Croyances et coutumes populaires françaises. Paris : Librairie Stock, 1924, 16 p. Édition complétée le 3 août, 2009 à Chicoutimi, Ville de Saguenay, Québec*

6. Пропп В.Я. *Фольклор и действительность. Избранные статьи. Москва: издательство « Наука», 1976, 16стр*

7. Narzullaeva, D. B. (2023, January). *History of the translation of the quran into french. in international conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 116-118). <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/1495>*

LITERARY CRITICISM

8. SarimsoQov B. *O'zbek folklorining janr sostavi // O'zbek folklori ocherklari. Uch tomlik.1-tom. T.: «Fan», 1988, 82-83-b.*
9. Dor Remy . *Un seul corbeau ne fait pas l'hiver. — Paris: Editions L&M, 2010.11p*
10. Francois Bacon. *Essays. - Paris, 1597. - 435 p.*
11. Philippe Rapatel. *Un proverbe traduit est a moitie acquis // Hal: Traductologie, proverbes et figements, 2010, pp. 1-11 <https://halshs.archives-ouvertes.fr/halshs-00601160>*
12. Nasirdinova Yo. A. *O'zbek folklori va mumtoz adabiyoti fransuz tilida(Рему Дор таржумялари acocuda) f.f.f.d.(PhD) ishi. Toshkent-2019y. 38b.*
13. Safarov O. *O'zbek xalq og`zaki ijodi. Darslik. – Musiqachi, 2010. – B.78.*